



## TIJORAT BANKLARIDA ZAMONAVIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH

**Masharipov Asilbek Iloxovich**

*Bank moliya akademiyasi MBA Banking fakulteti 22-11 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko‘rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmonida “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e‘tibor berilmoqda. Maqolada tijorat banklarida zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish haqida ma‘lumotlar va ulardan qanday foydalanish haqida tushuntirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Tijorat banklari, zamonaviy xizmatlar, online xizmatlar, valyuta ayirboshlash, bozor mexanizmlari, kredit tizimi, chakana bank xizmatlari.*

**Kirish:** *O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko‘rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmonida “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e‘tibor berilmoqda.*

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

*Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko‘rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilmoqda, ularning turlari kengaytirilmoqda, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik oshib bormoqda. Aholi uchun valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishni yengillashtiruvchi yangi bank xizmatlari joriy etildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish uchun imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, bank xizmatlari iste‘molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish,*



shuningdek, xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda. Xususan:

birinchidan, kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilmoqda;

ikkinchidan, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralamoqda;

uchinchidan, tijorat banklari tomonidan mikroqarzar ajratilishi imkoniyatining mavjud emasligi mikroqarzar olish darajasini oshirish imkonini bermayapti, mikro kredit tashkilotlar va lombardlarning xizmatlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari aksariyat holatlarda iste'molchilarning moliyaviy holati yomonlashishiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, chakana bank xizmatlari bozorining past darajada rivojlanganligi va mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishning zamonaviy yondashuvlari mavjud emasligi ortiqcha byurokratiya va sansalorlik uchun zamin yaratmoqda;

beshinchidan, bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha davlat protsessing tashkilotining mavjud emasligi chakana to'lov tizimlarining xavfsizlik, uzluksizlik va ishonchlilik darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda hamda aholining keng qatlamlari uchun ochiq bo'lgan innovatsion loyihalarni amalga oshirishda zamonaviy texnologik yechimlarni ilgari surishga to'sqinlik qilmoqda;

oltinchidan, kreditlarni (mikroqarzlarni) ko'rib chiqish va ajratish uchun xizmat haqi hamda boshqa to'lovlarning undirilishi qarzning real qiymati oshishiga olib kelmoqda;

yettinchidan, shartnomalarga xizmatlar tariflarini, ajratilgan kreditlar va jalb qilingan depozitlar bo'yicha foizlarni bir tomonlama o'zgartirish huquqini nazarda tutuvchi shartlarning kiritilishi, shuningdek, bir xizmatning qo'shimcha xizmatdan foydalanish sharti bilan ko'rsatilishi bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini buzmoqda;

sakkizinchidan, bank to'lov kartalaridan chet el valyutasini yechish bo'yicha cheklovlarning mavjudligi va bankomatlar sonining yetarli emasligi valyuta ayirboshlash amaliyotlarini bajarishda talab darajasida xizmat ko'rsatish imkonini bermayapti.

Mazkur muammolarni bartaraf etish, bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va innovatsion rivojlanishning tendensiyalarini inobatga olgan holda moliyaviy ochiqlik darajasini oshirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar



strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tegishli qaror qabul qilindi.<sup>1</sup>

### **Tahlil va natijalar.**

Hozirgi kunda bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron bank xizmatlarini ko'rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan funktsiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda.

Shuningdek, zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; nazorat yuklarini, shu jumladan banklarning regulyator va davlat organlari bilan axborot almashinuvini takomillashtirish hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish orqali ularni taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan yuklarni kamaytirish; masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish; avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish; bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish; bank sohasidagi yangi kontseptsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank) " kabi vazifalarning belgilanganligi mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Yevropaliklar o'zlarining tranzaksiya tarixini tekshirish, pul mablag'larini bir hisobdan ikkinchisiga o'tkazish, balanslarini tekshirish va to'lovlarni amalga oshirish uchun raqamli bankingdan muntazam foydalanadilar. Onlayn banklar tobora ilg'or xizmatlar va moliyaviy mahsulotlarni taklif qilar ekan, odamlar kredit olish, sarmoya kiritish va moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish uchun internet-bankingdan foydalanmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya

---

<sup>1</sup> (1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-152-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son)



texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, to'lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Bekchanov., R. Po'latov. Kanada: plastik kartochnalar bilan hisobkitob qilish tizimi. Bozor, Pul va Kredit. №6.2012
2. Sherali Sultonov Nuraliyevich, Nodira Soatova Bobokhanovna. Ways of Fund Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald.2022
3. Sherali Sultonov. Directions of state regulation of the stock market. International Journal of Economic Growth and Environmental. 2021
4. <file:///C:/Users/user2/Downloads/tijorat-banklarida-zamonaviy-bank-xizmatlarini-ko-rsatishning-ahamiyati.pdf>
5. <file:///C:/Users/user2/Downloads/Xoliqova+Zebiniso+Rustamovna++.pdf>
6. <https://lex.uz/ru/docs/-3593541>